



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Xorazm viloyatida jami 365,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,8 % ni tashkil etdi.

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

**365,1 mlrd. so‘m**

Yirik qurilish tashkilotlari ulushi - **4,1 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi -

**68,5 %**

Norasmiy sektor ulushi -

**27,4 %**

Jami qurilish ishlari hajmida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 15,0 mlrd. so‘m ishlar bajarildi. Bu esa tarmoqning jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,1 % dan iborat ekanini hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,9 % ni tashkil etganini anglatadi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari

hajmining 68,5 % i to‘g‘ri keldi. Ular tomonidan 250,0 mlrd. so‘m ishlar bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi. Umumiy bajarilgan ishlarning 27,4 % i norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelib, 100,1 mlrd. so‘m bunyodkorliklar amalga oshirildi. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 97,3 % ni tashkil etganini ko‘rsatadi.

**2020-yil  
yanvar-fevral**

**Xorazm viloyatida qurilish ishlari**


## 2020-yilning yanvar-fevral oylaridagi qurilish ishlari tarkibi

2020-yil yanvar-fevral oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin o'sish sur'ati esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,1 % dan iborat bo'ldi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,3 % ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so`m)**



**2020-yil  
yanvar-fevral**

Xorazm viloyatida qurilish ishlari



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### 2020-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlaringning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismini qurilish loyihalari, ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tashkil etadi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 80,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda jamiga nisbatan 14,2 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,2 % to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan ulushi 1,3 % punktga kamaydi.


2020-yil  
yanvar-fevral

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

## Yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi



- Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2020-yil  
yanvar-fevral

Xorazm viloyatida qurilish ishlari


## 2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish loyihalari, ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlardan iborat. Bunda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil qilganini ko'rish mumkin.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 % ga o'sgan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 83,9 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari  
(mlrd. so`m)**




**2020-yil  
yanvar-fevral**


Xorazm viloyatida qurilish ishlari

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 343,2 mlrd. so‘m qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,0 % dan iborat bo‘ldi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 21,9 mlrd. so‘m qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,0 % ni tashkil qildi.




## 2020-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

Shahar va tumanlarda bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari quyidagilardan iborat:

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahrida 86,1 mlrd. so'mni, Bog'ot tumanida 14,9 mlrd. so'mni, Urganch tumanida 37,3 mlrd. so'mni, Xonqa tumanida 29,7 mlrd. so'mni, Xiva tumanida 53,1 mlrd. so'mni tashkil qildi.


**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari  
(mlrd. so'm)**



## 2020-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi, % da)

Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlari hajmining viloyatda eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 23,6 % ni tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda bu ulush Urganch tumaniga 10,2 %, Xiva tumaniga 14,5 % va Yangiariq tumaniga 4,6 % dan to‘g‘ri keldi.

**Qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi, % da.)**




## 2020-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da.)


Qurilish ishlari eng yuqori o‘sish sur’ati quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi:

Bajarilgan qurilish ishlari jadal borishi tufayli o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Urganch shahrida 104,7 % ni, Hazorasp tumanida 113,7 % ni tashkil qildi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da.



## 2020-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so'm)



Shahar va tumanlarda binolar va inshootlarni qurish ishlari tahliliga e'tibor qaratilsa, Urganch shahrida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 5,3 mlrd. so'm ishlar bajarilgani qayd etildi. Bu esa o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 144,2 % ni tashkil qilganidan darak beradi.



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 65,5 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,7 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan 15,5 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 79,9 % ga yetdi.

Urganch tumanida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 6,1 mlrd. so‘m ishlar bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 178,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 22,3 mlrd. so‘m qurilish ishlari amalga oshirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 93,1 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan 8,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari hajmi bajarilgan bo‘lib, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 111,5 % ni tashkil qilgani e’tiborga molik.

Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi  
Nashr uchun mas’ul: SH.Babajanov  
Telefon: (0362) 224-65-22

2020-yil  
yanvar-fevral

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

11